

## TASHQI SAVDOGA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH SIKLINING TA'SIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14900970>

**Sodikov Zokir Rustamovich**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

*Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti, i.f.n.*

### **Annotatsiya**

Maqolada mahsulot hayot sikli nazariyasining vujudga kelishi va uning bosqichlarining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Innovator mamlakat bilan texnologiyani o'zlashtiruvchi mamlakatlarning sharoitlari bayon qilingan. Mahsulot hayot siklining har bir bosqicidagi vaziyatlar va uning tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, bu nazariya bo'yicha eksportning yuzaga chiqishi va mamlakatning salohiyati va xususiyatlari ochib berilgan. Bu nazariya doirasida tashqi savdoning rivojlanish qonuniyatlari keltirilgan.

### **Kalit so'zlar**

eksport, import, tashqi savdo, mahsulot hayot sikli, mahsulot, ishlab chiqarish, mahalliy bozor, tashqi bozor, savdo, innovatsiya, xalqaro savdo, jahon bozori, texnologiya.

## ВЛИЯНИЕ ЦИКЛА ПРОИЗВОДСТВА ПРОДУКЦИИ НА ВНЕШНЮЮ ТОРГОВЛЮ

**Содиков Зокир Рустамович**

*доцент кафедрой "Исламская экономика и финансы, зиярах туризм"*

*Международной исламской академии Узбекистана, к. э. н.*

### **Аннотация**

В статье анализируется возникновение теории жизненного цикла продукта и ее характерные этапы. Рассмотрены условия стран-новаторов и стран, осваивающих технологии. Освещены ситуации и тенденции на каждом этапе жизненного цикла продукта. Кроме того, в рамках данной теории раскрываются причины возникновения экспорта, потенциал и особенности стран. Приведены закономерности развития внешней торговли в контексте этой теории.

### **Ключевые слова**

экспорт, импорт, внешняя торговля, жизненный цикл продукта, продукт, производство, внутренний рынок, внешний рынок, торговля, инновации, международная торговля, мировой рынок, технологии.

## THE IMPACT OF THE PRODUCT PRODUCTION CYCLE ON FOREIGN TRADE

**Sodikov Zokir Rustamovich**

*International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD, docent of the Department of "The Islamic economy and finance, ziyarah tourism".*

### **Annotation**

The article analyzes the emergence of the product life cycle theory and the unique characteristics of its stages. It outlines the conditions of innovator countries and technology-adopting countries. The situations and trends at each stage of the product life cycle are discussed. Additionally, the theory explains the emergence of exports and reveals the potential and specific features of countries. Within the framework of this theory, the patterns of foreign trade development are presented.

### **Keywords**

export, import, foreign trade, product life cycle, product, production, domestic market, foreign market, trade, innovation, international trade, global market, technology.

Mahsulotning ishlab chiqarish sikli nazariyasi – bu texnologik boʻshliq nazariyasining rivojlantirilgan va kengaytirilgan veriyanti boʻlib, bu nazariya 1966 yilda Raymond Vernon tomonidan oʻrtaga tashlangan. Mazkur nazariyada ilgari surilgan yondashuvga binoan muayyan mamlakatlarda muayyan turdagi tovarlarni ishlab chiqarishga, ayrimlari esa yangi turdagi tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan boʻladi. Biroq, masalaning muhim ahamiyat kasb etadigan jihati shundan iboratki, muayyan tovarning yangi tovar vaziyatidan ommaviy ishlab chiqariladigan tovar shakliga oʻtishi bilan uning ishlab chiqarish makoni va geografik joyi ham oʻzgarishi mumkin.

Ushbu yondashuvga koʻra, texnologik yangiliklar va yangi tovarlarni ishlab chiqarish jarayoni dastlab jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlarda, xususan AQShda, Yaponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Janubiy Koreya singari davlatlarda sodir boʻladi. Buning boisi, mazkur mamlakatlarda investitsiyalar yuqori malakali ishchi kuchini tayyorlashga va ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishga hamda innovatsion faoliyatlarni ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilganligi

bilan bog'liq hisoblanadi. Zero, ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha tovarlarning sikli nazariyasiga ko'ra, yangi turdagi tovarlarni ishlab chiqarish dastlab, kichik hajmda amalga oshiriladi va ishlab chiqarish jarayonida kelib chiqadigan muammolar izchillik asosida bartaraf qilib boriladi hamda mahsulot iste'molchilarning talablariga binoan takomillashtirilib, boriladi. Shu bois, ilk bosqichdagi kichik hajmdagi ishlab chiqarish eksport uchun emas, balki, mahalliy bozor talabini qondirishga yo'nalgan bo'ladi. Shu bois, ilk boshlanishida ishlab chiqarish jarayoni iste'mol bozoriga yaqin bo'lishi talab etiladi. Chunki, ishlab chiqarilayotgan tovarlarni takomillashtirish va bozor talablariga moslashtirish uchun iste'molchilarning fikr-mulohazalarini va takliflarini olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yangi texnologiyalar mahalliy kompaniyalar tomonidan yaratilganligi bois, yangi turdagi tovarlarni ishlab chiqarish birinchilardan bo'lib, innovatsiyalarni joriy qilgan kompaniya mamlakatida yuzaga chiqadi. Shu bois ushbu jarayonlar ishlab chiqarish faoliyatining dastlabki bosqichida sodir bo'ladigan xususiyatlar hisoblanadi. Shundan so'ng keyingi bosqich keladi va yangi mahsulot to'liq takomillashib, bozor talablariga moslashadi. Bu bosqichda ishlab chiqarish faoliyati jadallashadi va tovarlarni sotish avvalo, mahalliy bozorga amalga oshirilsa, keyin esa, tashqi bozorga eksportga chiqarila boshlaydi. Natijada, bu tovarning mahalliy bozorda talabi va ishlab chiqarish hajmi muntazam ortib boradi. Shuningdek, tovarga tashqi bozor talabining vujudga kelishi hisobiga ishlab chiqarish hajmi yanada jadallashib, kengayib borishi kuzatiladi va bu bosqichda innovatsiya sodir bo'lgan mamlakat yangi texnologiyani o'zida saqlab turadi.

Lekin, ishlab chiqarish jarayonida borgan sari tovarni sinab ko'rish bosqichi nihoyasiga yetib, yangi texnologiya standart holatiga kelishi bilan uning ommaviylashuvi uchun sharoit yaratiladi. Mazkur jarayon natijasida tovarning hayot sikli borasida uchinchi bosqichga o'tiladi. Bundan keyin innovatsiya qilgan kompaniya yangi texnologiyani ichki va tashqi bozorlarga litsenziyaga berilishini manfaatli yondashuv sifatida qabul qila boshlaydi.

Ayni paytda, standartlashgan yangi ishlab chiqarish texnologiyasi asosida faoliyat olib borish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va tovarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ishlab chiqarish faoliyatini ish haqlari past va xomashyolar arzon bo'lgan boshqa mamlakatlarga ko'chirilish zaruriyati vujudga keladi. Chunki, innovatsiyaga asoslangan mamlakatda yuqori malakali ishchi kuchidan yuqori ish haqi evaziga foydalanilganligi va xomashyolar qimmat bo'lgani uchun ishlab chiqarish xarajatlari bu mamlakatlarda nisbatan yuqori bo'ladi. Shu bois, ilmiy-tadqiqot ishlariga va yuqori muhandislik mahoratiga ega ishchi kuchiga ehtiyoj bo'lmagan bu to'rtinchi bosqichda, yangi tovarni ishlab

chiqarish faoliyatini boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chirish tejamkorlik va xarajatlarni kamaytirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur, bosqichda innovatsiyaga asoslangan mamlakatda bu tovarning bir qismi hali ham ishlab chiqarilayotgan bo'lsada, mahsulot litsenziyasini qo'lga kiritgan o'zlashtiruvchi mamlakatlarda ishlab chiqarish faoliyatini nisbatan kam xarajatlar bilan yangi tadbirkorlar amalga oshira boshlaydi. Ular tashqi bozorlarni eksport orqali egallashlari natijasida innovatsiyaga asoslangan mamlakatning eksportdagi ulushi asta-sekin pasayib, oxir-oqibat batamom bozordan chiqib, bu tovarni import qiluvchi bosqichiga o'tadi.

Natijada, innovatsiyaga asoslangan mamlakatning ichki bozori mahalliy ishlab chiqarish o'rniga import orqali ta'minlana boshlaydi va bu mahsulotning hayot sikli nazariyasi bo'yicha beshinchi bosqichga qadam qo'yilganligini bildiradi. Bu bosqichda yaratilgan yangi texnologiya standartlashganligi uchun dunyodagi ko'pgina mamlakatlarga ommalashgan va ishlab chiqarish hajmini cheklovchi litsenziyalarning ham amal qilish muddati nihoyasiga yetgan bo'ladi. Shu bois, bu yangi texnologiyalar endi o'ziga xos erkin tovarga aylandi va bozorlarda cheklanmagan hajmda sotilishi mumkin bo'ladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar ichki va tashqi bozorlarni boyberishi bilan innovatsiyani amalga oshiruvchi mamlakatda ishlab chiqarish jarayoni shiddat bilan qisqa muddat mobaynida so'nadi. Va nihoyat, innovatsiyaga asoslangan mamlakat o'z ichki bozorida ham batamom ulushini qo'ldan boyberishi natijasida mahsulotning ishlab chiqarish yoki hayot sikli bosqichi to'liq yakunlangan bo'ladi.

Innovator mamlakatda ichki iste'mol mavjud bo'lib, u butunlay import hisobidan ta'minlanadigan bo'ladi. Shu bois, innovator mamlakatdagi navbatdagi funktsiya yangi texnologiyaga oid ixtirolarni amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Aslida, amaliyot jarayonida yuqoridagi protses bilan bir qatorda innovatsiyaga asoslangan mamlakatda yana boshqa yangiliklarni izlashga davom etiladi. Shu bois innovatsiyaga asoslangan mamlakatda yangiliklarning yaratilishi va innovatsiya jarayoni uzluksiz davom etadigan xarakterga ega bo'lishi tabiiy hisoblanadi. Jahon amaliyotida ishlab chiqarish yoki hayot sikli bosqichlarini bosib o'tgan tovarlarga ko'plab tipik namunalar keltirish mumkin. Xususan, bu borada, tekstil sanoati, radio, oq-qora va rangli televizorlar, yarimo'tkazgichli chiplar (semi conductor chips) va ayniqsa elektron mahsulotlar muhim o'rin egallamoqda.

Buning klassik namunasi tekstil sanoati hisoblanadi. Aynan, 18-asrda Angliyada yuzbergan sanoat inqilobi bu mamlakatda tekstil sohasida katta muvaffaqiyatlar va afzalliklarni ta'minlab bergan. Ayni paytda, o'sha davrda yangi texnika va texnologiyalarning ommaviylashuvi bilan ishlab chiqarish jarayoni AQShga, so'ngra Janubi-Sharqiy Osiyodagi oddiy ishchi kuchiga boy bo'lgan

rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'chib, o'ta boshladi. Bu mamlakatlar standart texnologiyalardan foydalanib tekstil mahsulotlarini ancha kam xarajatlar bilan ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Aynan, tekstil sanoatining mamlakatlararo ko'chish tendensiyasi bugungi kunda ham uzluksiz davom etayotgan bo'lib, xususan, Janubiy Koreya, Gonkong va Singapur kabi mamlakatlarga xos bo'lgan to'qimachilik markazlarida ish haqi yuksalishi natijasida ishlab chiqaruvchilar faoliyatini Malayziya, Filippin, Xitoyga, undan keyin esa Turkiya, Indoneziya, Bangladesh va boshqa shu kabi Osiyodagi yangi markazlarga ko'chirib, o'tkazmoqda.

Mahsulotning hayot sikli voqeasiga yana boshqa bir klassik namuna Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Amerika bilan Yaponiyalik radio ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sodir bo'ldi. Urushdan keyingi yillarda amerikalik ishlab chiqaruvchilar xalqaro radio bozorida ustunlikka ega bo'lishgan. Bu ustunlikning boisi AQSh tomonidan takomillashtirilgan "havosiz radio lampalari" (vacuum tubes - havosiz radio naychalari) tufayli kelib chiqqan. Shundan keyin bir necha yil o'tgach, Yaponiya Amerika texnologiyasidan nusxa ko'chirib olgan va arzon ishchi kuchi imkoniyatidan foydalanib, bu bozorning katta qismini egallashga muvaffaq bo'lgan. AQSh, tranzistorlar texnikasini rivojlantirish orqali yana bozorda takroran ustunlikni qo'lga kiritgan. Ammo, yana bir necha yil o'tmasdan, Yaponiya yangi texnologiyaga taqlid qilib, AQShdan o'zib ketgan. Keyinchalik AQSh "bosma elektron plata" (Printed circuit board)ni kashf qilib, Yaponiya bilan ustunlik borasida tenglashgan.

So'nggi yillarda texnologiyaning ixtirochidan taqlidchiga ommalashuv muddati, ya'ni, mahsulotlarning hayot sikllari vaqt jihatidan juda qisqarib bormoqda. Bu esa, AQSh kabi innovator mamlakatlarning doimiy ravishda raqobatbardosh bo'lib turishi uchun, texnologiya taraqqiyoti tezligini yoki bozorga yangi mahsulotlar chiqarish jadalligini oshirishlari kerakligini talab qililadi. Xususan, bugungi kunda, axborot texnologiyalaridan tortib, turli sohalarda kuzatilayotgan hayron qolarli darajadagi texnologiya taraqqiyotida bu omilning ham muayyan nisbatda ta'sir ko'rsatayotganligini aytish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu modellarga ko'ra, tashqi savdo jarayoni avvalo, taraqqiy etgan mamlakatlarda nisbatan ko'p bo'lgan omillar, xususan, yuqori malakali ishchi kuchiga va ilmiy-tadqiqotlarga yo'naltirilgan investitsiyalarga asosan rivojlantirilgan texnologiyaga tayanadi. Mazkur vaziyatdan, keyin esa, rivojlanayotgan mamlakatlar taqlid va mahsulot ishlab chiqarishdagi standartlashtirish orqali nisbatan arzon ishchi kuchiga asoslangan holda nisbiy afzallikka ega bo'ladi. Demak, shu bois, tashqi savdoning qaysidir ma'noda, mamlakatlar o'rtasidagi joriy omillar nisbatiga, ya'ni, texnologiyaga

asoslanganligini aytish mumkin. Shuning uchun aslida, masalani ana shu nuqtayi-nazardan tahlil qiladigan tadqiqotchilar texnologik uzilish gipotezasi bilan mahsulot hayot sikli gipotezasining asosi bu Heksher-Ohlin yoki omillarni joylashtirish nazariyasining texnologiya taraqqiyoti va o'zgarishlar vaziyatida qo'llash amaliyoti sifatida talqin qiladilar.

### **FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'ZBEKISTON – 2030" strategiyasi to'g'risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmoni
2. Dominick S., International economics. Printed in the USA /. - 13th ed. 2019. 720 p.
- 3.Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International economics: theory and policy. 12 th edition. Harlow, Essex: Pearson, 2023, 817p.
- 4.Sirajiddinov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Birinchi qism. Tashqi savdo nazariyasi va siyosati. O'quv qo'llanma. – T.: JIDU, 2017. – B. 182.
- 5.Seyidoğlu H. Uluslararası İktisat: Teori Politika ve Uygulama. Güzem can yayinlari, Istanbul, 2022. - 22. baski
- 6.Thomas A. Pugel. International Economics. Printed in the USA /. - 18th Edition. 2024.
- 7.Tuxliyev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya.- T.: "Ilm-Ziyo-Zakovat", 2021. – 72 b.
- 8.<https://www.stat.uz>
- 9.<https://www.cbu.uz>
- 10.<https://wdi.worldbank.org/tables>